



**“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMY-TADQIQOT INSTITUTI**

# OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

3/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

## **TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## **TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** (Bosh muharrir o'rinnbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**FARFIYEV Bahromjon Atxamdjjanovich** – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

**ISHQUVATOV Valiqlul Turdiyevich** – *tarix fanlari doktori, professor.*

**KARAMYAN Marietta Xachaturovna** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSLIMOV Narzulla Alixanovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**NURMATOVA Mukharram Akhmedovna** – *falsafa fanlari doktori, professor.*

**NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*

**RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna** – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

**SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna** – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**ATAMURATOV Rasuljon Kadirkhonovich** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**SODIQOVA Shohida Marhobayevna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich** – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*

## **ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

## **ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – *доктор социологических наук, профессор.*

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** (*Заместитель главного редактора*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** – *доктор экономических наук, профессор.*

**Бегимкулов Узокбой Шоимкулович** – *доктор педагогических наук, профессор.*

**Фарфиев Бахромжон Атхамджанович** – *доктор социологических наук, доцент.*

**Ишкуватов Валикул Турдиевич** – *доктор исторических наук, профессор.*

**Карамян Мариэтта Хачатуровна** – *доктор психологических наук, профессор.*

**Муслимов Нарзулла Алиханович** – *доктор педагогических наук, профессор.*

**Нурматова Мукхаррам Ахмедовна** – *доктор философских наук, профессор.*

**Нарматов Нуридин Соатмурадович** – *доктор юридических наук, профессор.*

**Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна** – *доктор юридических наук, доцент.*

**Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна** – *доктор философии юридических наук (PhD).*

**Атамуратов Расулжон Кадиржонович** – *доктор философии педагогических наук (PhD).*

**Содикова Шохида Мархобаевна** – *доктор социологических наук, профессор.*

**Зохидов Азаматжон Альзамович** – *доктор экономических наук, профессор.*

**Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевич** – *доктор географических наук, доцент.*

## **THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna** (*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

## **MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

**Begimkulov Uzokboy Shoimkulovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Farfiyev Bakromjon Atxamdjjanovich** – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

**Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich** – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

**Karamyan Marietta Khachaturovna** – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

**Muslimov Narzulla Alikhanovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Nurmatova Mukharram Akhmedovna** – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

**Narmatov Nuriddin Soatmuradovich** – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

**Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna** – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

**Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna** – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

**Atamuratov Rasuldjon Kadirkhonovich** – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*

**Sodikova Shohida Markhobayevna** – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

**Zokhidov Azamatjon Azamovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

**Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich** – *Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.*

*SOTSILOGIYA*

<b>Xomitov K.Z.</b> Qishloq ayollarini ish bilan ta'minlashning samarali tashkiliy mexanizmlari ta'sirini aniq sotsiologik baholash.....	4
--	---

*JAMIYAT VA OILA*

<b>Ramatov J.S.</b> O'zbekiston yoshlari – kelajagimiz poydevori .....	15
<b>Yulchiyeva D.X.</b> O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshiralayotgan islohotlarning muhim ahamiyati .....	22
<b>Акбаров А.А.</b> Толерантность – это свобода в многообразии.....	31
<b>Bo'riyeva M.</b> Oila instituti mustahkamligiga turmush o'rtoq intellekt darajasining ta'siri.....	37
<b>Pardayev S.A., Axatova M.Sh.</b> Shaxsda musiqa madaniyatini shakllantirishda oilaning roli.....	45

*XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI*

<b>Каримова Д.М.</b> Гендерное равенство: почему этот вопрос становится актуальным в Узбекистане .....	52
--	----

*PEDAGOGIKA*

<b>Mavlonov B.B.</b> O'smir yoshdagи bolalarning fazilatlarini rivojlantirishda atrof-muhit va pedagogik guruh faoliyatining ta'siri .....	61
--	----

*IQTISODIYOT*

<b>Shayusupova N.T., Amirdjanova S.S.</b> Relationship between employment and economic growth in Uzbekistan .....	75
<b>Adilova Z.D., Umirova D.S.</b> Modern factors in the development of regional tourism.....	89
<b>Meliboyev A.R., Masharipov F.O'.</b> Mehnat bozori ehtiyojlari asosida yoshlarni zamonaviy va sifatli kasb-hunarga o'qitish .....	98

**Ramatov Jumaniyoz Sultanovich,**  
*Toshkent davlat transport universiteti kafedra mudiri,  
falsafa fanlari doktori, professor*



# O'ZBEKISTON YOSHLARI – KELAJAGIMIZ POYDEVORI

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar va uning jamiyat hayotida tub burilish davrining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, ijtimoiy ahamiyati va inson ma'naviy kamolotiga ta'siri tahlil qilinadi hamda O'zbekistonni yangi bosqichga olib chiqish omillariga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bog'liq masalalar ilmiy muhokama qilinadi.

**Аннотация.** В статье анализируется социально-философская сущность, социальная значимость и влияние реформ, проводимых в Узбекистане и периода коренных перемен в жизни общества, на духовную зрелость человека. Также будут научно обсуждены вопросы, связанные с возрастанием потребности в факторах для вывода Узбекистан на новый этап.

**Annotation.** The article analyzes the socio-philosophical essence, social significance and the impact of the reforms carried out in Uzbekistan and the period of fundamental changes in the life of society on the spiritual maturity of a person. There will also be scientifically discussed the issues related to the increasing need for factors to bring Uzbekistan to a new stage.

**Tayanch so'zlar:** O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi, omillar, ta'lim va tarbiya, yosh avlod, barkamollik, Uchinchi Renessans.

**Ключевые слова:** новый этап развития Узбекистана, факторы, воспитание и обучение, молодое поколение, совершенствование, Третий Ренессанс.

**Keywords:** new stage of development of Uzbekistan, factors, upbringing and education, young generation, improvement, Third Renaissance.

*Yangi O'zbekistonning kelajagi hisoblangan bunday fidoyi, bilimli, zukko va vatanparvar o'g'il-qizlarimiz barchaga namuna bo'lishi kerak.*

**Shavkat Mirziyoyev**

**Prezidentimiz  
Shavkat Mirziyoyev  
mamlakatimiz  
o'g'il-qizlarini  
Yoshlar kuni  
bilan tabriklab,  
nutq so'zлади.  
Unda "Sizlar  
bilan uchrashish,  
taklif va tashab-  
buslaringizni  
eshitish menga  
har doim quvonch  
va g'urur  
bag'ishlaydi.  
Shijoat va  
intilishingizni  
ko'rib, yonib  
turgan  
ko'zlariningizga  
boqib, o'zimga  
bitmas-tuganmas  
kuch olaman.  
Sizlar mana  
shunday katta  
kuch-qudrat  
egasisizlar", – dedi  
Prezident**

**Kirish.** Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda "Yangi O'zbekiston" iborasi takror-takror tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan yutuqlarimizning e'tirofi, jahon hamjamiatining yurtimizga jiddiy e'tiboridir. Chunki bizga mustaqillik g'oyasi, istiqlol ruhi tog'dek tayanch bo'lmoqda. Bizni ilg'or niyatlar, buyuk maqsadlar, ulkan marralar yo'lida adashmaslikka undamoqda, tanlagan yo'limiz to'g'rilingiga inontirmoqda. Qaysi sohani olmaylik, qaysi jabhaga nazar solmaylik, ilgari surilayotgan xalq tashabbusi, albatta, qo'llab-quvvatlanmoqda, sharoit yaratilmoqda, investitsiya kiritilmoqda, rag'batlantirilmoqda, bir so'z bilan aytganda, xalqning roziligi yo'lida tinmay izlanilmoqda. Zero, iqtisodiyotni siyosatdan, ma'naviyatni ta'lim-tarbiyadan ayro ko'rib bo'lmanidek, "xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davri poydevori yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas", – deydi davlat rahbari.

Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz o'g'il-qizlarini Yoshlar kuni bilan tabriklab, nutq so'zлади. Unda "Sizlar bilan uchrashish, taklif va tashabbuslaringizni eshitish menga har doim quvonch va g'urur bag'ishlaydi. Shijoat va intilishingizni ko'rib, yonib turgan ko'zlariningizga boqib, o'zimga bitmas-tuganmas kuch olaman. Sizlar mana shunday katta kuch-qudrat egasisizlar", – dedi Prezident. Ha, har bir o'g'il-qizimiz bizga kuch-quvvat beradi. Ularning harakatchanligi, zukkoligi, topqirligidan ko'zlarimiz quvnaydi.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning har bir chiqishlari, ma'ruzalari va nutqlarini biz ziyorilar doimo intiqlik bilan kutamiz. Buning sababi nimada? Eng avvalo, bu chiqishlarda yangi fikrlar, yangi g'oyalalar, taraqqiyotimizni belgilaydigan ustuvor yo'nalishlar, O'zbekistonni yangi bosqichga olib chiqish omillari, shu bilan bir qatorda, rivojlanishimizga g'ov bo'layotgan holatlar, mavjud muammolarni hal qilishning nostandard yechimlari aniq, ravon va sodda tilda ifodalab beriladi. Misol sifatida mustaqilligimizning 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi<sup>1</sup>,

<sup>1</sup> Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма тўқкиси йиллигига бағишланган нутки. // Халқ сўзи №186 сон, 2020.

BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasidagi<sup>2</sup>, Konstitutsiyamizning 29 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи, O‘zbekiston Yoshlari forumidagi nutqlari hamda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomalarini keltirish mumkin<sup>3</sup>. Eng muhimmi, barcha ma’ruzalardagi markaziy masala – bu xalqimizning turmush darajasi, farovonligini oshirish, O‘zbekiston xalqiga munosib turmush sharoitini yaratish.

Murojaatnomada ustuvor yo‘nalish sifatida ta’lim-tarbiya sohasiga alohida urg‘u berildi. Chunki har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu maqsadda “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”<sup>4</sup>, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu o‘rinda bir narsaga e’tiboringizni qaratmoqchi edim. Biz qachonki ta’lim to‘g‘risida gapirsak, albatta, tarbiyani ham qo‘shib aytamiz. Sababi ta’lim va tarbiya yagona, uzviy jarayon hisoblanadi. Ta’lim bor joyda, albatta, tarbiya ham bo‘ladi. Lekin bu masalada boshqacha qarashlar ham bor, ya’ni tarbiya oilada beriladi, ta’lim muassasalarida esa faqat ta’lim berish kerak, degan. Fikrimizcha, maktab, litsey, texnikum, universitet o‘qituvchisi ham tarbiyachidir. Nafaqat ta’lim dargohida, balki mahallada ham, oilada ham. Chunki azal-azaldan qishloqda ham, mahallada ham o‘qituvchiga munosabat, e’tibor boshqacha bo‘lgan. Ziyoli inson sifatida uning fikrlariga quloq solishgan.

Davlatimiz rahbari “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”da so‘zlagan nutqlarida shunday ta’kidladilar: “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz. Ishonamizki, hurmatli ota-onalar bu tashabbusni, albatta, qo‘llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchı halqasi, beshinchı ustuni bo‘ladilar”.

Sohibqiron Amir Temurning “Temur tuzuklari”dagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma’naviyati uchun bugun ham oziq bo‘ladigan

**Davlatimiz rahbari  
“O‘qituvchi va  
murabbiylar  
kuni”da so‘zlagan  
nutqlarida shunday  
ta’kidladilar:  
“Biz Uchinchi  
Renessans  
masalasini  
strategik vazifa  
sifatida oldimizga  
qo‘yib, uni milliy  
g‘oya darajasiga  
ko‘tarmoqdamiz.  
Biz maktabgacha  
ta’lim va maktab  
ta’limi, oliy va  
o‘rta maxsus ta’lim  
tizimi hamda  
ilmiy-madaniy  
muassasalarni  
bo‘lg‘usi  
Renessansning  
to‘rt uzviy halqasi,  
deb bilamiz**

<sup>2</sup> Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблейасининг 75-сессиясидаги нутки // <https://president.uz/uz/lists/view/3851>

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь <https://www.youtube.com>

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь <https://www.youtube.com>

hikmatli fikrlarining qanchalik hayotiy ekaniga ko‘p bor ishonch hosil qilish mumkin. Masalan, “Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshidir”, degan so‘zlar bugungi kunda ham ma’naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekani barchamizga ayon.

Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma’noli hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo‘lgan “Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqr” degan maqolga g‘oyat hamohang bo‘lib, insonni doimo aql-idrok,adolat va yuksak ma’naviyat asosida yashashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir.

Prezident yoshlarning bandligini ta’minalash masalasiga har yig‘ilishida mutasaddilarga topshiriqlar bermoqda. Yoshlarga atalgan tabrigida ham alohida e’tibor qaratib, tadbirkorlik dasturlariga 220 ming nafar, kasb-hunar o‘rganishga 130 ming nafar, davlat korxonalarini va xususiy sektordagi bo‘sish o‘rinlariga 110 mingdan ziyod o‘g‘il-qizlar jalb etilishini ta’kidladi.

Yuqorida ko‘zlanayotgan islohotlar natijasida buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiylardek kuchli bilimli yoshlар jamiyat va davlatni boshqarishda faol bo‘lishga tayyorlanadi. Mirzo Ulug‘bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi – tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo‘lida ulkan shijoat va matonat ko‘rsatgani, O‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ zot Alisher Navoiyning butun dunyonini lol qoldirgan asarlari va uning ijodi, Amir Temurni esa qanchadan qancha xalqlarni bir g‘oya ostida birlashtirganini bilamiz.

Vatanparvarlik insonning, eng avvallo, o‘z onasiga bo‘lgan mehr-muhabbati deb qarasak, onasi esa bu Vatanidir. Shuning uchun hamki, bu tushuncha insonning Vataniga muhabbatini va uni asrab-avaylashga bo‘lgan intilishini anglatadi. Ota-bobolarimiz, ulug‘ ajdodlarimiz va allomalarimiz Vatanga sadoqatlarini, o‘z yurtlariga muhabbatlarini ifoda etish borasida tarixda ajoyib namunalarni bizga meros qoldirishgan. Masalan, ulardan biz ko‘proq Ahmad Farg‘oniy, Muhammad Xorazmiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Abulays Samarqandiy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi buyuk mutafakkirlarimiz o‘zlarining taxalluslarini kindik qonlari to‘kilgan yurt bilan bog‘laganlari, ularning nomini dunyoga ma’lum-u mashhur qilganliklarini yaxshi anglaymiz. ularning yozib qoldirgan boy merosini o‘qir ekansiz, benihoya qalbingizni vatanparvarlikka his-tuyg‘ularini his qilishga undaydi.

Shuningdek, yoshlarning nafaqat kasb-hunari, bilimiga, balki ularning axloq-odobi, xulqiga ham jiddiy e’tibor qaratilishi muhimligini hayotning

*Vatanparvarlik  
insonning, eng  
avvallo, o‘z  
onasiga bo‘lgan  
mehr-muhabbati  
deb qarasak,  
onasi esa bu  
Vatanidir. Shuning  
uchun hamki,  
bu tushuncha  
insonning Vataniga  
muhabbatini va uni  
asrab-avaylashga  
bo‘lgan intilishini  
anglatadi. Ota-  
bobolarimiz, ulug‘  
ajdodlarimiz va  
allomalarimiz  
Vatanga  
sadoqatlarini,  
o‘z yurtlariga  
muhabbatlarini  
ifoda etish borasida  
tarixda ajoyib  
namunalarni bizga  
meros qoldirishgan*

o‘zi oynadek bizga ko‘rsatmoqda. Shu o‘rinda Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini eslaylik. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g‘oyat katta ta’sir kuchiga ega ekanligi hamda insонning hur fikrli bo‘lishida oila, oilaviy tarbiyaning ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Oilada bolaga ilk yoshdan boshlab odob va axloqqa oid tarbiya berish lozimligini quyidagicha tushuntiradi: “Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq kerak, zehnimizni esa ravshanlantrimoq lozim”. Abdulla Avloniy ta’kidlashicha, bolaning sog‘lom va zehnli tarbiyalanishida dastlab oila va ota-onalar asosiy tarbiya kuchi hisoblanishadi. Bolaning har tomonlama barkamol bo‘lishida dastlab oilada ota-onalar shaxsiy namuna bo‘ladi. Zero, xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan maqol bejizga aytilmagan. “Inson javhari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqar...”. Demak, olim bola tarbiyasida oilaning rolini birlamchi darajaga qo‘yadi. “Tarbiyani kim qilur? Qanday qilinur?” degan savol keladi. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi ona vazifasidir. Ikkinci maktab tarbiyasi bu ota, muallim vazifasidir, degan javob bersak”. Ko‘rinib turibdiki, Abdulla Avloniy bolaning mukammal tarbiyasida oila va ota-onani alohida ko‘rsatish bilan birga, maktab va jamoat tashkilotlariga ham bog‘liqligini e’tirof etib, tarbiya masalasini umuminsoniy vazifalar darajasida talqin etadi. Bu ta’kidlar bugungi kunga nechog‘li mos kelishini yaxshi tushunamiz.

**Xulosa.** O‘zbekiston Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida keltirilgan quyidagi vazifalar professor-o‘qituvchilar jamoasi uchun ta’lim-tarbiya sohasida tub o‘zgarishlarni amalga oshirishdek ulkan mas’uliyat yuklaydi: “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Buning uchun, eng avvalo, yosh avlodga bog‘cha, maktab hamda oliygohda sifatlari ta’lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yamiz”<sup>5</sup>.

Murojaatnomada bola tug‘ilganidan to 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan, yaxlit va uzlusiz tizim yaratilishi zarurligi ta’kidlanadi. Chunki dunyo tajribasidan ma’lumki, yosh avlodni har

*Abdulla Avloniy  
ta’kidlashicha,  
bolaning sog‘lom  
va zehnli  
tarbiyalanishida  
dastlab oila va  
ota-onalar asosiy  
tarbiya kuchi  
hisoblanishadi.  
Bolaning har  
tomonlama  
barkamol  
bo‘lishida dastlab  
oilada ota-onalar  
shaxsiy namuna  
bo‘ladi. Zero,  
xalqimizda “Qush  
uyasida ko‘rganini  
qiladi”, degan  
maqol bejizga  
aytilmagan*

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь <https://www.youtube.com>

tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi<sup>6</sup>.

So'nggi yillarda milliy ta'lif tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlarni quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Maktabgacha ta'lif tizimi tubdan o'zgarmoqda: bolalar bog'chalari, 10 mingga yaqin maktab, pedagogika institutlari, pedagogika kollejlari va hokazolar. Maktabgacha ta'lif qamrovi, taxminan, 17-18 foizni tashkil qildi. 2021-yil yakuni bilan maktabgacha ta'lif qamrovi 65 foizga, 2023-yil oxirida esa 75 foizga yetkazilishi, qo'shimcha 2 mingta nodavlat bog'cha tashkil etilib, xususiy sektor ulushi 25 foizga yetkazilishi kutilmoqda.

2. Maktab ta'lifini tubdan yaxshilash uchun 2021-yili 30 ta yangi maktab qurildi, 320 ta maktab ta'mirlanib, moddiy-texnik bazasi yaxshilanib, byudjetdan 2 trillion so'm ajratildi. Ta'lif sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchi va domlalar uchun uslubiy qo'llanmalarini ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish ishlari bajarildi.

Murojaatnomada bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun hamda tushunarli darsliklar yaratish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada boshlang'ich sinflarda davlat ta'lif standarti o'rniga ilg'or xorijiy tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan "Milliy o'quv dasturi" joriy etildi. Umumta'lif maktablaridagi ta'lif sifati poytaxtda ham, olis qishloqlarda ham yuqori bo'lishi ta'minlandi. Boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan o'qituvchilar oyligiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa, 100 foiz ustama haq to'lanashi ko'zda tutildi. 2021-yilda 10 ta Prezident maktabi, kimyo-biologiya, matematika, axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan 197 ta maktab o'z faoliyatini boshladи<sup>7</sup>.

Raqobatbardosh milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash maqsadida Toshkent shahrida yangi zamonaviy universitet tashkil etildi. Mazkur universitetga xorijlik yetakchi olimlar va professor-o'qituvchilar jalb qilinib, yoshlarga eng zamonaviy dasturlar asosida ta'lif-tarbiya berilmoqda.

3. Oliy ta'lifning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2021-yildan boshlab oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirildi. OTMga qabul qilishda

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь // <https://www.youtube.com>

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь // <https://www.youtube.com>

*Raqobatbardosh  
milliy kadrlarning  
yangi avlodini  
tayyorlash  
maqsadida  
Toshkent shahrida  
yangi zamonaviy  
universitet tashkil  
etildi. Mazkur  
universitetga  
xorijlik yetakchi  
olimlar va  
professor-  
o'qituvchilar jalb  
qilinib, yoshlarga  
eng zamonaviy  
dasturlar asosida  
ta'lif-tarbiya  
berilmoqda*

ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko‘paytirib, 2 mingtaga yetkazildi. Kirish testlarida eng yuqori ball to‘plagan 200 nafar talabaga 4 yil mobaynida Prezident stipendiyasi berilmoqda<sup>8</sup>.

Bozor munosabatlari qonuniyatlariga ko‘ra, mahsulotning sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biri bu raqobatdir. Mamlakatimizda turli sohalarda, jumladan, qishloq xo‘jaligi, qurilish, sanoat, tibbiyot, farmatsevtika va hokazolarda davlat-xususiy sherikchiligi joriy qilingani holda ta’lim tizimida mavjud emas edi. Endi esa maktabgacha ta’lim, o‘rta ta’lim, oliy ta’limda ham sog‘lom raqobat muhitini yaratilmoqda. Xususiy bog‘cha, maktab, universitetlar tashkil qilinmoqda. Davlat-xususiy sherikchilik asosida Qo‘qon nodavlat universiteti, “Toshkent International University” xalqaro universiteti, Britaniya menejment universiteti, TEAM universiteti, Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti, Akfa universiteti kabi nodavlat oliy ta’lim muassasalari tashkil etildi.

Natijada yoshlarimizda tanlash imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa tabiiy ravishda ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi. OTM moliyaviy tomondan mustaqil bo‘layotganini e’tiborga olsak, endi ular o‘rtasida ko‘proq yoshlarni jalb qilish uchun amaliy harakatlar olib boriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Мустақилигининг йигирма тўқиз йиллигига бағишиланган нутқи. // Халқ сўзи, 186-сон. 2020.
2. Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёевнинг БМТ Боши Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи // <https://president.uz/uz/lists/view/3851>.
3. Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь // <https://www.youtube.com>

<sup>8</sup> Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь // <https://www.youtube.com>

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA  
IJTIMOIY HAYOT  
СЕМЬЯ, ЖЕНШИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ  
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE**

*elektron ilmiy jurnal*  
электронный научный журнал  
*electronic scientific journal*

**3/2022**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-soni  
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.  
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy  
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni  
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»  
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.  
Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,  
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных  
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and  
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.  
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific  
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions  
of makhalla, family and gender equality.*

**MUASSIS:**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**

**Jo‘rayeva M., Razzakova N.,**

**Sobirova E., Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.08.2022.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilov ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.